



O'ZBEK ADABIYOTIDA XITOIY MIFOLOGIYASINING AYRIM QIRRALARINI O'RGANILISH TARIXI

Anvarova Zohida Akromjon qizi

SamDu filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik yo'nalishi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6583383>

ANNOTATSIYA: O'zbek - Xitoy xalqlari adabiyoti qadimdan o'zaro ma'lum uyg'uliklarga ega bo'lib borgan. Hozirgi kunda O'zbek adabiyotida Xitoy mifologiyasi o'rganilishi bilan bir qatorda, xitoy olimlarining o'zbek adabiyotiga bo'lgan qiziqishi tobora ortib borayotgani ularning ilmiy izlanishlarida aks etyapti. Ushbu maqolada Xitoy mifologiyasini o'rganish bilan bog'liq o'zbek adabiyotida qilinayotgan ilmiy izlanishlarning bibliografiyasini keng qamrovda yoritishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, mif, mifologiya, totem, Xitoy adabiyoti, xitoy mifologiyasi, xitoy afsonalari, Nyu-va, ajdaho, totemistik xususiyatlar talqini, bo'ri, Pangu.

Abstract: The literature of the Uzbek-Chinese peoples is similar from ancient times. Today, Chinese mythology is currently being studied in Uzbek literature, in addition the interest of Chinese scholars in Uzbek literature is reflected in their scientific work. In the article we have tried to cover the bibliography of scientific researches in the Uzbek literature on the study of Chinese mythology.

Keywords: Folklore, myth, mythology, tetem, Chinese literature, Chinese mythology, Chinese legends, Nyu-wa, dragon, interpretation of totemistic concepts, wolf, Pangu.

Аннотация: Литература узбекско-китайских народов похожа с древних времен. В настоящее время китайская мифология изучается в узбекской литературе. Интерес китайских ученых к узбекской литературе находит свое отражение в их научной деятельности. В статье мы постарались осветить библиографию научных исследований в узбекской литературе по изучению китайской мифологии.



Ключевые слова: Фольклор, миф, мифология, тотем, китайская литература, китайская мифология, китайские легенды, Нью-ви, дракон, толкование тотемистических понятий, волк, паньгу

Biror bir xalqning og'zaki ijodidagi ma'lum bir tafakkur mahsullari davrlar o'tib yozma adabiyot va o'zaro so'zlashuv orqali, qo'shni qardosh xalqlar bilan bo'layotgan madaniy-ijtimoiy aloqalar ta'sirida butun dunyoga tarqalishi, tabiiy holdir. Bu, avvalo, fanda, adabiyotda o'z nishonasini ko'rsatadi hamda o'rganiladi, solishtiriladi. Xalqimizda bir maqol bor: "Odam- odam bilan tirikdir", -degan. Bejizga bunday hikmatli so'z paydo bo'lmagan. Buyuk Ipak yo'li esa ramziy ma'noda ulkan xalqlar qatori ikki buyuk adabiyotni (o'zbek-xitoy) ham bog'lab turguvchi dastak vazifasini bajargan. Davlatlarning iqtisodiy-madaniy, balki adabiy mushtaraklik kasb etishiga ham kamarbasta bo'lgan. O'zbek va Xitoy adabiyoti mana shunday ta'sirladan holi emas, chunki Buyuk Ipak yo'li ikki buyuk adabiyotni ham o'zaro tutashtirdi. Avvalo, bunday uyg'unlik xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan, keyin yozma adabiyotga kirib borgan. Xalq og'zaki ijodi asrlar mobaynida tarixning yo'ldoshi, uning aks sadosi... Xalq turmushi, hayot tarzi, ruhiy dunyosining oynasi hisoblangan folklor asarlari yillar bo'yi to'plangan ijodiy tajribalardan iborat badiiy-estetik qadriyatlardan biridir. [5: 3] Xalqlar orasida olam va odamning paydo bo'lishi, tabiat hodisalari qanday ro'y berishi bilan bog'liq savollarga javob topishga urunish natijasida ilk og'zaki manbalar paydo bo'lgan. Bu tafakkurning yangi kurtaklari mif deb atalmish afsona va ertaklardan oldin yaratilgan tushunchaning asosida yotadi. U esa mifologiyadek katta bir soha tarkibida o'rganiladi.

Mifologiya- miflarni o'rganuvchi fandır va ibtidoiy madaniyatning asosi – olamni idrok etishning qadimgi vositasi va badiiy tafakkurning ibtidosidir. Mifologiya- inson aqliy faoliyati taraqqiyotining dastlabki bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. [4:1501-1505] Albatta buning asosida insoning ilk tafakkuriy qarashlari yotadi. Olam – odam, tabiat haqidagi bilimlarning yuzaga kelishidagi dastlabki ildizlari edi. To'g'ri mifologik qarashlarda, asosan, fantastik fikrlar, mulohazalar keltirilgandek tuyuladi, eng avvalo, bu insonda olam haqidagi tafakkuriy rivojlanishlarning paydo bo'lishidir. Hozirgi davrda shunday mulohaza yurutish tabiiydir, lekin bu qarashlar miflarni yaratuvchisi bo'lmish ibtidoiy odam uchun haqiqat edi. O'zbek-Xitoy adabiyotida, hatto, bu borada ham ma'lum uyg'unliklarni guvohi bo'lib turibmiz. Misol uchun,



Samarqand davlat chet tillar instituti Konfutsiy instituti o'qituvchisi filologiya fanlari doktori professor E.Musurmonov aynan Xitoy adabiyoti, madaniyati bilan bog'liq ko'plan izlanishlar qilmoqda. Bu borada bir qancha o'quv uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqolalari nashr ettirib keladi. Quyida esa aynan Xitoy mifologiyasi bilan bog'liq ishlarning ayrim manbalarini keltirdik. Jumladan, "Xitoy adabiyoti tarixi"[9:20] o'quv uslubiy qo'llanmasi xitoy xalq og'zaki ijodi, qadimgi xitoy adabiyoti ildizlari, ilk shoirlar va yozma adabiy yodgorliklari, o'rta asrlar xitoy adabiyoti, XVII-XVIII asrlar prozasi, XX asr va yangi XXI adabiyoti to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Bundan tashqari, xitoy miflari, ularning o'ziga xos jihatlari, falsafiy tamoyillari, miflar evolutsiyasi, takomili va mifologik personajlar haqida to'liq ma'lumot berib o'tgan. Miflar bilan bog'liq masalalar, uning afsona va rivoyat janrlaridan o'zgacharoq tushuncha ekanligi hamda o'ziga xos xususiyati haqida to'liq va keng ma'lumotni olimning Suy Ling xonim bilan tuzgan "Xitoy folklori: mif va ertaklar"[2013] o'quv-uslubiy qo'llanmasidan topish mumkin. E. Musurmonovning N.Rahmatullayev bilan hamkorlikda "Dao-De-Jeng va Xitoy madaniyati"[8:134-135] ilmiy risolasida Dao ta'limotining adabiyotga ko'rsatgan ta'siri, Markaziy Osiyo ellari ma'naviy aloqalari Xitoy va qadimgi o'zbeklar falsafiy qarashlari tarixidagi mushtarakliklar xususida so'z yuritiladi. Mifologik timsol, mifologik sxema, mifologik personajlar, mifologik ajdodlar, mifologik roman, dramalar va xitoy adabiyotida inson obrazning mifologik tasavvur bosqichlaridan qay darajada o'zgarishlar bilan o'tib kelganligini yoritib o'tadi. "Xitoy folklori" [10:32-42.] o'quv-uslubiy qo'llanmasida Xitoy afsona (mif) va ertaklari ularning o'ziga xos xususiyatlariga doir ma'lumot berilib, kitob oxirida xitoy tilidan tarjima qilingan afsona va ertaklar berilgan. Xitoy afsonalarining o'ziga xos xususiyatlari, mifologik obrazlar tizimi haqida atroflicha qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Miflarga misollar keltirilgan. Olimning Samarqand davlat universiteti rektori Xalmuradov R.I. bilan birgalikda "Buyuk Ipak yo'li madaniyati, mifologiyasi va arxitekturasi"[6:174] monografiyasida asosiy e'tibor Xitoy madaniyati, asotirlari va falsafasining binokorlik madaniyatiga ko'rsatgan ta'sirini yoritib berishga qaratilgan. Bundan tashqari mifologik -falsafiy qarashlar Xitoy me'morchiligining asosi ekanligi va mifologik obrazlar tasvirining arxitekturasiga ta'siri misollar bilan ochib berilgan va hattoki, xitoy sehrli personajlari bilan bog'liq miflarining tarjimalari keltirilgan. Shu bilan birga olimning yana bir "Buyuk Ipak yo'li qadimgi o'zbek-xitoy adabiy aloqalari" [7] nomli monografiyasi nashr etildi. Monografiya Xitoy-



O'zbek xalqlarining qadimgi badiiy-falsafiy qarashlaridagi o'xshashliklar, madaniy aloqalarning yuzaga kelish tarixi, rivojlanishi bosqichlari qiyosiy tahlil qilingan mifologik ontologiya, taraqqiyot va obrazlarning o'zgarishlariga yuz tutishi, parallel sayyor sujetlarning vujudga kelishi, ularning sabab va jarayonlari yoritilgan. Kitob Xitoy va O'zbekiston xalqlari o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalar tarixiga bag'ishlanadi. Ushbu asarning yana bir e'tiborli jihati O'zbek-Xitoy adabiy aloqalari paydo bo'lishining ilk ildizlari, mifologik qahramonlar talqinlari va yozma adabiyotning vujudga kelishi borasida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, olimning "Konfutsiy adabiy qarashlari va ilk Xitoy adabiyotining vujudga kelishi"[13.] maqolasida Xitoy adabiyotining vujudga kelishi bilan bir qatorda qadimgi xitoy miflarining evgemeriatsiyaga uchraganligi sababli mifologik obrazlar tarixiy shaxslarga aylanganligi bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Olimning yana bir "O'zbek va xitoy mifologiyasida bosh totemistik tushunchalar talqini "[14. 77.] nomli maqolasida ikki xalq adabiyotidagi bo'ri va Pangu totemlari qiyosan solishtirilgan. Bu mavzudagi ulkan ishlardan biri olimning "O'zbek-Xitoy xalqlari adabiy aloqalari genezisi: folklor va adabiyotda mushtaraklik" mavzusidagi filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasidir. Dissertatsiya o'zbek-xitoy adabiyotidagi o'zaro o'xshashliklarni qiyosiy tahlil qilish bilan bir qatorda, mifologik obrazlarning o'tmish manbalari asosida haqiqiy ildizlarini aniqlash bilan bog'liq masalalar e'tibor markaziga olingan.[12]"Xitoy folklorida besh bosh o'zak va "Xamsa" tushunchasi genezisi talqinlari" maqolasida esa xitoy miflarini qiyosiy o'rganadi. Nyu-va, Pangu va boshqa olamning yaratilishi haqidagi miflardagi besh raqami bilan bog'liq qarashlarni ilmiy jihatdan dalillar asosida ochib beradi.[11: 50-53]

K.Akilova, I.Abdurahmonova hamkorlikda yaratgan "Tasviriy san'atda afsona va rivoyatlar"[1:39-52] o'quv qo'llanmasining I bobida bir qancha sharq davlatlari bilan bir qatorda Qadimgi Xitoy afsonalarining tasviriy san'at rivojida o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Bu qo'llanma birgina tasviriy san'at sohasi uchun emas, balki adabiyot uchun ham Xitoy asotirlari to'g'risida; Qadimgi Xitoy afsonalari olam va odamning yaratilishi; Xitoyda mifologik qarashlarning rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Bundan tashqari bir qancha katta izlanishlar deborчасi bo'lmish, kichik maqolalar ham yozilgan. Samarqand davlat universiteti tarixi kafedrasida mustaqil izlanuvchisi N. Achilovaning



“Ajdarho obrazining genezisi va evolyutsiyasi talqinlari” maqolasida Xitoy mifologiyasida alohida ahamiyatga ega bo’lgan ajdarho obrazi boshqa xalqlar adabiyoti bilan qiyosiy tahlilga tortilgan.[3:360-368] Filologiya fakulteti magistri Z.Anvarova esa “O’zbek-Xitoy mifologiyasida ayrim obrazlar tahlili” maqolasida Qayumars va Pangu mifologik obrazlarini solishtirib, o’xshash qirralarini ochib berishga uringan.[2:11-15] Samarqand davlat Chet tillari instituti talabasi I. Tojiboyev “Xitoy tilida afsona va rivoyatlar” maqolasida Xitoyning afsona va rivoyatlari haqida umumiy ma’lumot berish bilan bir qatorda, ayrimlarini to’liq yoritadi va tahlilga tortadi. Ularning orasida Nyu-va- Xitoy imperiyasi janubida hayotning paydo bo’lishi bilan bog’liq afsonaGA alohida to’xtaladi. [12:631-634]

Endilikda Xitoy miflarning O’zbek miflari bilan bog’liq ichki qiyosiy jihatdan o’rganish uchun ham kerakli nazar ilmiy manbalarga egamiz. Tashqi, umumiy qirralar ularda farq qiluvchi ichki qorishqliklar ham borligini ko’rsatadi. Bu esa boshqa bir masaladir. Samarqand davlat universiteti rektori ta’kidlaganidek: “ Binobarin, Xitoy adabiyoti bilan ma’lum bir milliy adabiyotni qiyosiy tadqiq qilish, mavjud badiiy unsurlar, sujet, obrazlar silsilasi, janrlar poeziyasi genezisi, evolyutsiyasi va ontologiyasi kabi muammolarni zamonaviy tahlil metodlari asosida o’rganish bugun muhim ahamiyat kasb etadi.[7:10]

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Akilova K. Abdurahmonov I. Tasviriy san’atda afsonalar va rivoyatlar. –T.: , 2016. 39-52-betlar.
2. Anvarova Z. MULTIDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND SCIENTIFIC RESEARCH/ UKRAINIAN SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE. 2022.
3. Achilova N. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ Scientific Journal Impact Factor. 2021. 5.423.
4. Babadjanova N.ACADEMIC RESEARCH EDUCATIONAL SCIENCES. 2021. 1501-1505-betlar.www.ares.uzh
5. Masharipova Z. O’zbek xalq og’zaki ijodi. –T.: , 2007. 3-bet.
6. Musurmonov E. Xalmurodov R.I.Buyuk Ipak yo’li madaniyati, mifologiyasi va arxitekturasi. – T.:, “Fan”. 2021.



7. Musurmonov E. Buyuk Ipak yo'li qadimgi o'zbek-xitoy adabiy aloqalari. – S.: 2021.
8. Musurmonov E. Rahmatullayev N.Dao-De-Jeng va Xitoy madaniyati. – S.: , 2016.
9. Musurmanov E. Xitoy adabiyoti tarixi. –S.:, 2016.
10. Musurmonov E. Ma SUI Lin. Xitoy folklori. 2014. –S. : .
11. Musurmonov E. Xitoy folklorida besh bosh o'zak va “Xamsa” tushunchasi genezisi talqinlari / Xorijiy filologiya. №4. 2019.
12. Musurmonov E. O'zbek-Xitoy xalqlari adabiy aloqalari genezisi: folklor va adabiyotda mushtaraklik / Doktorlik dissertatsiya avtoreferati. –S., 2020.
13. Musurmonov E. Konfutsiy adabiy qarashlari va ilk Xitoy adabiyotining vujudga kelishi /SamDu Ilmiy axborotnoma. –S., 2019. 4(116).
14. Musurmonov E. O'zbek va xitoy mifologiyasida bosh totemistik tushunchalar talqini / SamDu Ilmiy axborotnoma. –S., 2020. 4(122).
15. Tojiboyev I. Xitoy tilida afsona va rivoyatlar /ACADEMIC RESEARCH INNEDUCATIONAL SCIENCES. 2021. 631-634-betlar.